



**O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING BOZOR
FAOLIYATINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA MAMLAKAT
IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI**

Mumtozbeginim Kholmatova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Assistent marketing kafedrası

e-mail: mmumtozbeginim16@gmail.com

Annotatsiya: *O'zbekiston mustaqillik davridan boshlab iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka alohida e'tibor qaratdi. Ichki bozorimizni sifatli raqobatbardosh mahsulotlar bilan to'ldirishda, aholi bandligini ta'minlash va daromadini oshirib borishi, farovonligining o'sishida asosiy omillardan deb tan olingan. Shuningdek, u jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo'lgan mulkdorlar sinfining, ya'ni o'rta sinfning shakllanishi va mustahkamlanishini ta'minlovchi, jamiyatimizdagi ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning kafolati va tayanchi, yurtimizni taraqqiyot yo'lidan faol harakatlantiradigan kuch sifatida qaraldi. Shunga asosan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakat iqtisodiy siyosatining eng muhim yo'nalishi sifatida qaraldi.*

Kalit so'zlar: *YAIMdagi hissasi, Chakana savdo, Eksport, b import, xususiy tadbirkorlik, mamlakatlar.*


KIRISH. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka alohida urg'u berilishi sohaning quyidagi qator jarayonlarni ta'minlovchi omil sifatida baholanadi:

- iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish va rag'batlantirish;
- yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarish, iqtisodiy jihatdan samarasiz hisoblanuvchi mahsulot va xizmatlarni kooperatsiya asosida etkazib berish;
- yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiyotdagi ikkilamchi bandlikni ta'minlash;
- bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish;
- ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtirish;
- resurslarni tezkorlik bilan ishlab chiqarishga safarbar etish;
- davlat byudjetiga soliq tushumlari hajmining sezilarli darajada o'sishini ta'minlash;
- aholi daromadlarini oshirish va darajasini barqarorlashtirish va boshqalar.

Mustaqillik yillarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga davlat tomonidan katta e'tibor berilishi hamda uning qo'llab-quvvatlanishi natijasida sohaning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yildan-yilga ortib bordi. Mustaqillik yillarining dastlabki pallasi – 1991-yilda kichik biznes, xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi 1,5 foizni tashkil etgan, 2000-yilda ushbu ko'rsatkich 31 foizga, 2015-yilda 64,6 foizga, 2020-yilda 54,8 foizga, 2023-yilda esa 51,2 foizga etdi, ya'ni 2023-yil ko'rsatkichlari 1991-yilga nisbatan 33 barobarga, 2005-yilga nisbatan esa 1,3 barobarga o'sgan (2.1-rasm).



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



2.1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi hisyasi, foizda.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi bo'yicha qayd etilgan ko'rsatkichlar aksariyat bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlaridan yuqori hisoblanadi. Jumladan, ushbu ko'rsatkich Italiyada 60,0 foizni, Yaponiyada 55,0 foizni, Germaniyada 54,0 foizni, Buyuk Britaniyada 53,0 foizni tashkil etadi. MDH mamlakatlari guruhidan Qozog'istonda 25,6 foiz, Rossiya Federatsiyasida esa 20,0 foizga teng (2.2-rasm). **Kichik biznesning faoliyat sohalari, foizda**

Ko'rsatkichlar	2022-yil	2023-yil	2023-yil 2022-yilga nisbatan o'zgarishi
YAIM	51,6	51,2	-0,4
Sanoat	26,0	26,9	0,9
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	94,8	94,8	O'zgarmagan
Investitsiyalar	47,9	51,4	3,5
Qurilish	71,5	74,7	3,2
Chakana savdo	84,7	83,8	-0,9
Xizmatlar	49,4	47,7	-1,7
Eksport	31,2	29,0	-2,2
Import	49,5	50,7	1,2
Bandlik	74,4	74,1	-0,3

KO'B korxonalari samaradorligi va raqobatdoshligini oshirishda innovatsion faoliyatni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi mahsulot va xizmatlar turini yaratish, yangi texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga joriy qilish KO'B korxonalari barqaror rivojlanishining eng muhim omili bo'lib qolmoqda. Mahsulotlarning sifati va raqobatbardoshligini oshirish, moddiy va mehnat resurslarini iqtisod qilish, mehnat





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



unumdorligini oshirish hamda korxona faoliyatini tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish bilan bog'liq zaxira imkoniyatlar innovatsion faoliyat bilan bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdirakhmonovich A. T. Avtomobil sanoatining sotish kanallarida raqamli marketing strategiyalardan foydalanish //international scientific conferences with higher educational institutions. – 2022. – T. 1. – №. 25.10. – C. 426-434.
2. Axson, D. Best practices in planning and performance management: radically rethinking management for a volatile world / D. Axson. – 3rd ed. – N. Y. : John Wiley & Sons, 2010. – 300 p.
3. Malhotra N. K., Birks D.F. (2006). Marketing research. An arplied approach. Pearson Education Limited.